

**“IKKINCHI JAHON URUSHIDA SAMARQANDLIK LARNING URUSHGA  
QO‘SHGAN HISSASI”**

*Baxtiyorov Shaxrux G‘ulom o‘g‘li  
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti  
3-bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** Mazkur maqola 2-jahon urushida Samarqandda bo‘lib o‘tgan voqealar va odamlarning urushga safarbar qilinishi ularning front orti xizmatlari va mahsulotlar yetkazib berish va Samarqandlik vatan fidoyilar haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** urush, vatanparvar, jangchi, qahramon, ko‘chirib keltirish, fashist, baynalminal, insonparvarlik.

Urush boshlangani tog‘risidagi xabar yetib kelgan kunidayoq O‘zbekistonning barcha shaharlari va tumanlarida, korxona va muassasalarida mitinglar va yig‘ilishlar bo‘lib o‘tdi. Ishchilar xizmatchilar, dehqonlar, ziyorilar, talaba yoshlar o‘z Vatanlarini himoya qilishga, dushman bilan yuzma-yuz janglarda bosqinchilarni tor-mor etish uchun frontga borishga, g‘alabani ta’minalash uchun mamlakat ichkarisida fidokorona mehnat qilishga tayyor ekanligini bildirdilar.

Urushning birinchi kunlaridanoq Samarqandliklar ham darhol frontga jo‘natilishlarini so‘rab harbiy komissarliklarga ariza berdilar. Samarqand aholisi shahar va viloyat harbiy komissarlariga darhol frontga jo‘natishlarini so‘rab 1316 ta ariza topshirdi. 1941-yilning 4-avgustiga kelib, bunday arizalar soni 2988 taga yetdi. Shu arizalardan 613 tasi xotin-qizlardan edi. Samarqand shahri aholisidan urushning birinchi yili davomida 10 ming, 1942-yil sentabr oyida yoki yil oxirigacha 27 ming kishi harbiy ma’lumotga ega bo‘ldi. Shahardagi Siyob tumanida xalq lashkarlari otryadlari yozilish boshlangan dastlabki kuniyoq bu otryadlar tarkibiga 3976 kishi jangchi bo‘lib kirdi. 1941-yilning 20-iyuliga qadar shaharda xalq lashkari otryadlariga 19579 kishidan iborat 73 ta otryad tuzildi. 1941-yilning oktabr va dekabr oylarida Samarqand shaharga ikkinchi jahon urushidan aziyat chekkan insonlarni ko‘chirish ishlari boshlandi va ko‘chirib keltirilayotganlarning soni oshib ketdi. Bu jarayon shaharda aholining zichlashuviga olib keldi, yuvinish joylari, dezinfeksiya qiladigan kameralar yetmasligi shaharda yuqumli kasalliklar paydo bo‘lish xavfini to‘g‘dirdi. 1942-yilning yanvarida bu masala shahar partiyasi aktive yig‘ilishida muhokama qilindi va chora-tadbirlar belgilandi. Ko‘pgina oilalar ko‘chirib keltirilgan ota-onasidan, boquvchisidan ajralgan, vaqtincha yoki doimiy yetim bo‘lib qolgan bolalarning ota-onalik mehri bilan qabul qilib oldilar.

Viloyat sobiq F.Englis nomli kolxoz raisi Fotima Qosimova uyida 6 farzandi bo‘lgani xolda front yoqasidan ko‘chirilgan, vaqtincha yoki doimiy boquvchisidan ajralgan 10 ta bolani farzandlikka oldi. Samarqandlik Niyoz Fuzaylov frontdagi

janglarda og‘ir yarador bo‘lib qaytgandan keyin, turmush o‘rtog‘i bilan birga o‘qituvchilik qiladi, farzandlari qatori 7 nafar bolani ham tarbiyalaydi. Viloyatning Kattaqo‘rg‘on shahridan bo‘lgan urush nogironi Abdulhamid Samadovning insonparvarligi va baynalminalligi butun dunyoga ovoza bo‘ldi. U urush nogironi bo‘lib qaytgach, urushning oxirlari va urush tamom bo‘lgandan keyingi yillarda o‘zi hali bo‘ydoq bo‘lishiga qaramay bolalarning kimligi-tili, irqi va millatidan qat’iy nazar 16 ta bolani tarbiyaladi. Samarqand paxta tozalash zavodining masteri Nurillayev, shu zavod jun mashinalari sexining boshlig‘i Prokopovich, shoira Ra’no Uzoqova, Paxtakor tumanidagi Qarnab qishloq Sovetining raisi Ahmedov, muallimlardan Nurmanov, Navro‘zov va boshqa ko‘pgina kishilar ko‘chirib keltirilgan bollarni o‘z oilalari tarbiyasiga oldilar. Bundan tashqari O‘zbekistonning boshqa viloyatlar aholisi kabi Samarqand viloyati vakillarining o‘rni ham bor. Ikkinci jahon urushida O‘zbekistondan 1433220 kishi qatnashgan bo‘lsa Samarqand viloyati bo‘yicha 152 mingdan ziyo troq kishi dushmanaga qarshi kurash olib borgan. Ikkinci jahon urushi davri 1942-yil sentabr kunlarning birida Past Darg‘om tumanining Qo‘qoniq qishlog‘ilik katta letenat Janquvvat To‘raqulov Kareleya frontida jang qilayotgan paytida 7 jangchi bilan razvetkaga boradi. Uning jangchilari sonidan 8 marta ziyod bo‘lgan nemislarning ikki vizvoti ro‘paradan kelib qoladi. Ular dushmanni tor-mor keltirib nemislar joylashgan tepalikni qo‘lga oladi. Nemis bosqinchilarga qarshi olib borgan janglarda va alohida o‘rnak ko‘rsatgan o‘zbek jangchilari va kamandirlari o‘zlarining qahramona ishlari to‘g‘sida raport berish uchun jonajon O‘zbekistonning poytaxti Toshkent shahriga keldilar. Delegatlar orasida Oqdaryo tumanining farzandi mohir mergan va 107 nemisni yer tishlatgan, hamda 22 kishini mergan qilib tayyorlagan ordeni starshena Muhammad Elmurodov, yakka uzi bir rota nemislarning hujumini qaytargan. Keyinchalik Samarqand aholisi ikkinchi jahon urushida front orti xizmatlari uchun askarlarni taminlab turgan Samarqand aholisi urushga g‘alla va arpa yetishtirishda yetakchi o‘rinni egallagan.

#### **Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abduraxmon Bodirov “Samarqand ikkinchi jahon urush yillarida” Zarafshon. Samarqand-2015 y 14-50 bet
2. Mo‘minov.I.M “Samarqand tarixi” Toshkent.”Fan”. 1970 y 238 bet
3. Turdiyev.S “Ulug‘ Vatan urush yillarda Uzbekiston mehnatkashlarning ko‘chirib keltirilgan bolalarga g‘amxo‘rligi” Toshkent.”Fan”.1987 y 27 bet
4. Aminov.X Ibrohimov.N “Samarqand-frontga”. Samarqand “Sug‘diyona”1994 24-25 bet